

MA’MURIY JAZO TIZIMIDA XORIJIY PARADIGMALAR VA XALQARO STANDARTLAR

Aliyarov Sherzod Muratovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 7-maydagi F-30-son farmoyishi asosida ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Adliya vazirligiga 2027-yil 1-aprelga qadar kodeksning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Mazkur hujjatda javobgarlik choralarining mutanosibligini ta’minlash asosiy maqsad sifatida qayd etilgan. Bunda huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik xususiyati va sanksiyalarning preventiv ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, muqobil jazo choralarini joriy etish va ma’muriy yurisdiksiyada sud nazoratini kengaytirish masalalari ilgari surilgan¹.

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 4-fevraldagi O‘RQ-1116-son Qonuni bilan amaldagi Kodeksga ma’muriy ogohlantirish instituti kiritildi. Mazkur norma ma’muriy jazolar tizimining dastlabki bosqichini huquqiy jihatdan takomillashtirdi. Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar ma’muriy jazo tayinlash institutining kompleks transformatsiya qilinayotganini tasdiqlaydi. Shu bois, ma’muriy-delikt qonunchiligi sohasidagi xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida o‘n ikkita davlatning ma’muriy-delikt qonunchiligi qiyosiy tahlil qilindi. O‘rganilgan huquqiy tizimlar tasnifi shartli ravishda quyidagi uchta guruhga ajratildi:

Birinchi guruh: Sobiq Ittifoq ma’muriy huquq an’analari ta’sirida shakllangan kodekslar. Ular sirasiga **O‘zbekiston**², **Rossiya**³, **Belarus**⁴, **Qozog‘iston**⁵, **Qirg‘iziston**⁶, **Tojikiston**⁷, **Ozarbajon**⁸, **Moldova**⁹, **Ukraina**¹⁰ va **Gruziya**¹¹ qonunchiligi kiradi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 7-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-30-son farmoyishi // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/8182691> (murojaat vaqti: 23.07.2026).

² O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994-yil 22-sentabr) // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/97664> (murojaat vaqti: 23.07.2026).

³ Кодекс Российской Федерации об административных правонарушениях от 30 декабря 2001 г. N 195-ФЗ (ред. от 04.07.2026) // Elektron manba: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/ (murojaat vaqti: 21.07.2026).

⁴ Кодекс Республики Беларусь Об административных правонарушениях от 6 января 2021 г. No 91-3 // Elektron manba: <https://pravo.by/document/?guid=12551&p0=HK2100091> (murojaat vaqti: 21.07.2026).

⁵ Кодекс Республики Казахстан об административных правонарушениях от 5 июля 2014 года № 235-V (ред. от 12.07.2026 г.) // Elektron manba: https://continent-online.com/Document/?doc_id=31577399#pos=5;-142 (murojaat vaqti: 21.07.2026).

⁶ Кодекс Кыргызской Республики О правонарушениях от 28 октября 2021 года № 128 // Elektron manba: <https://cbd.minjust.gov.kg/3-36/edition/55400/ru> (murojaat vaqti: 21.07.2026).

⁷ Кодекс Республики Таджикистан Об административных правонарушениях от 31 декабря 2008 г. // Elektron manba: <https://ncz.tj/legislation> (murojaat vaqti: 21.07.2026).

5-Avgust, 2026-yil

Ikkinchi guruh: Yevropaning tartibbuzarliklar to‘g‘risidagi qonunchiligi. **Germaniyaning** Tartibbuzarliklar to‘g‘risidagi qonuni (keyingi o‘rinlarda OwiG) bunga yaqqol misol bo‘ladi¹².

Uchinchi guruh: Sobiq ittifoq huquqiy tizimidan to‘liq voz kechgan va yangi yondashuvlarni tatbiq etgan **Latviyaning** 2018-yildagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonuni¹³.

Kodekslarni qiyosiy o‘rganish ularning Umumiy qismi, xususan, ma‘muriy jazo tayinlashga oid normalar doirasida amalga oshirildi. Maxsus qism sanksiyalarini bevosita solishtirish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz. Chunki, davlatlarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va milliy valyuta kurslaridagi keskin tafovutlar obyektiv ilmiy xulosalar chiqarish imkonini bermaydi.

Ma‘muriy jazo tayinlashning umumiy qoidalarini qiyosiy tahlil qilish ularning muayyan darajada unifikatsiyalashganini ko‘rsatadi. Aksariyat kodekslarda huquqbuzarlik xususiyati, aybdorning shaxsi, mulkiy ahvoli hamda javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni inobatga olish belgilangan. Xususan, **O‘zbekiston** (30-modda), **Rossiya** (4.1-modda), **Gruziya** (33-modda) va **Latviya** (19-modda) qonunchiligidagi tegishli normalar konstruktsiyasi jihatidan o‘xshash. Shu bilan birga, qonunchilik amaliyotida konseptual tafovutlar mavjud. Masalan, **Qozog‘iston** Kodeksining 55-moddasi ikkinchi qismida jazoning adolatliliigi, huquqbuzarlik xususiyati va sodir etilish sharoitiga mutanosibliigi alohida prinsip sifatida mustahkamlangan. Mazkur moddaning uchinchi qismi huquqbuzarning deliktga qadar va undan keyingi xulq-atvorini baholashni talab etadi¹⁴. **O‘zbekistonning** amaldagi Kodeksida odillik mezoni jazo tayinlashning umumiy qoidalari tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etmagan. Bu prinsip faqat ma‘muriy jazo maqsadlarini ifodalovchi 22-modda mazmunidan bilvosita anglashiladi. **Latviya** tajribasida esa, yuridik shaxslarga nisbatan “shaxs” tushunchasi o‘rniga “ishchanlik obro‘si” (reputatsiya) mezoni

⁸ Azərbaycan Respublikasının İnzibati xətlər məəcəsi (Azərbaycan Respublikasının 2015-ci il 29 dekabr tarixli 96-VQ nömrəli Qanunu ilə təsdiq edilmişdir) // Elektron manba: <https://e-qanun.az/framework/46960> (murojaat vaqti: 21.07.2026).

⁹ Кодекс Республики Молдова о правонарушениях от 24 октября 2008 года № 218-XVI (ред. от 01.07.2026 г.) // Elektron manba: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30395669 (murojaat vaqti: 21.07.2026).

¹⁰ Кодекс України № 8073-X від 07.12.1984 Кодекс України про адміністративні правопорушення (ред. 11.12.2025) // Elektron manba: https://ips.ligazakon.net/document/view/kd0005?an=3166&ed=1994_01_28 (murojaat vaqti: 21.07.2026).

¹¹ Administrative Offences Code of Georgia of December 15, 1984, No. 161 (Consolidated publications: 09.02.2023) // Elektron manba: <https://matsne.gov.ge/en/document/view/28216?publication=512> (murojaat vaqti: 21.07.2026).

¹² Act on Regulatory Offences of Germany (Gesetz über Ordnungswidrigkeiten) on 19 February 1987 (last amended 22 Dec., 2025) // Elektron manba: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_owig/englisch_owig.pdf (murojaat vaqti: 21.07.2026).

¹³ Administratīvās atbildības likums, pieņemts 25.10.2018. (20.06.2026. redakcijā) // Elektron manba: file:///C:/Users/user/Downloads/likumi_lv_303007_20.06.2026_lv.pdf (murojaat vaqti: 21.07.2026).

¹⁴ Андреев М.В., Анисифорова М.В. Анализ зарубежной практики назначения административного штрафа за правонарушения в области дорожного движения // Вестник Восточно-Сибирского института МВД России. – 2020. – № 2 (93). – С. 194–201.

qo‘llaniladi. Bu yuridik shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan huquqiy yechim hisoblanadi.

Mazkur masala yuzasidan M.V. Andreyanov va M.V. Anisiforovalarning ilmiy yondashuvlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Olimlar yo‘l harakati sohasidagi ma‘muriy jarimalarni qiyosiy o‘rganib, **Xitoy** va **Shvetsiya** qonunchiligida huquqbuzar shaxsini baholash tajribasi mavjud emasligini qayd etishgan. Shuningdek, ko‘pchilik xorijiy davlatlarda nisbiy-muayyan sanksiyalar ustuvorligi, mutlaq-muayyan sanksiyalar esa yengillashtiruvchi holatlarni qo‘llash imkoniyatini cheklab qo‘yishi asoslantirilgan¹⁵. Ushbu ilmiy xulosaning sanksiyalar turkumiga oid qismi qo‘llab-quvvatlanadi. Biroq, huquqbuzar shaxsini baholashdan voz kechish g‘oyasi bahslidir. Identifikatsiya va shaxsiylashtirishni istisno qiluvchi model faqat jarima miqdori kam bo‘lgan hamda avtomatik tarzda qayd etiladigan huquqbuzarliklar tizimida samara beradi.

O‘zbekiston Kodeksining 25-moddasida ayrim huquqbuzarliklar uchun BHMning 450 baravarigacha jarima belgilangan. Bunday yirik moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashda huquqbuzarning mulkiy ahvolini inobatga olmaslik jazoning profilaktik mohiyatini yo‘qotib, uni nomutanosib iqtisodiy majburlov chorasiga aylantiradi. Shu sababli, mutlaq-muayyan sanksiyalarni maqbullashtirish fikri asosli bo‘lsa-da, ma‘muriy yurisdiksiyada shaxs xususiyatlarini o‘rganishdan voz kechish milliy huquq tizimimiz uchun maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz.

Germaniyaning Tartibbuzarliklar to‘g‘risidagi qonunida (OWiG) ma‘muriy jarima miqdorini belgilashda farqli konseptual yondashuv qo‘llanilgan. Mazkur hujjatning 17-paragrafi uchinchi qismiga muvofiq, jarimani individuallashtirishda huquqbuzarlikning xususiyati va aybning darajasi asosiy mezon hisoblanadi. Aybdorning moliyaviy ahvoli faqat qo‘shimcha omil sifatida baholanadi. Uncha og‘ir bo‘lmagan tartibbuzarliklarda esa bu omil umuman inobatga olinmasligi mumkin. Shuningdek, paragrafnig to‘rtinchi qismida o‘ziga xos norma mustahkamlangan: tayinlanadigan jarima huquqbuzarning g‘ayriqonuniy harakatdan olgan moliyaviy manfaati (nafi)dan yuqori bo‘lishi shart.

Agar sanksiyaning yuqori chegarasi bunga yetarli bo‘lmasa, qonunda belgilangan maksimumdan chetga chiqishga ruxsat etiladi. Ushbu mexanizm jarimani nafaqat ma‘muriy jazo chorasi, balki noqonuniy orttirilgan daromadni musodara qilish vositasiga aylantiradi.

O‘zbekistonning amaldagi MJtKda bunday institut nazarda tutilmagan. Kodeksning 25-moddasi jarima miqdorini qat‘iy ravishda BHMga bog‘laydi. Huquqbuzarlik natijasida olingan daromad jazoni og‘irlashtiruvchi yoki individuallashtiruvchi mezon sifatida qayd etilmagan. Iqtisodiy va moliyaviy sohadagi deliktlarda mazkur bo‘shliq o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Agar belgilangan jarima noqonuniy foydaning faqat muayyan qismini tashkil etsa, huquqbuzar uchun jazo chorasi oddiy tijorat xarajati sifatida qabul qilinishi xavfi vujudga keladi.

Ma‘muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar tizimini qiyosiy tahlil qilish o‘ziga xos huquqiy xususiyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 31-moddasida oltita asos mustahkamlangan. Mazkur ro‘yxat qat‘iy cheklanmagan, ya‘ni ochiq xususiyatga ega. **Belarus** Respublikasi Kodeksining 7.2-moddasida esa, 11 ta

¹⁵ O‘sha manba.

yengillashtiruvchi holat nazarda tutilgan. Ular qatorida milliy qonunchiligimizda aks etmagan qator asoslar mavjud. Xususan, huquqbuzarning g‘ayriqonuniy harakatlarini ixtiyoriy ravishda to‘xtatishi yoki huquqbuzarlik haqida vakolatli organga o‘zi xabar berishi yengillashtiruvchi holat sifatida e‘tirof etiladi. Shuningdek, ishning obyektiv holatlarini aniqlashda organga ko‘maklashish hamda huquqbuzarlikning yetmish yoshga to‘lgan shaxs tomonidan sodir etilishi kabi asoslar ham kiritilgan.

Latviya qonunchiligining 20-moddasida ham o‘ziga xos normalar mavjud. Qilmish fosh etilguniga qadar shaxsning o‘zi ixtiyoriy murojaat qilishi yengillashtiruvchi holat deb baholanadi. Qo‘shimcha ravishda, huquqbuzarlikning jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy yoki axloqsiz xulq-atvori ta‘sirida sodir etilishi (viktimologik omil) ham alohida asos sifatida mustahkamlangan. **Ozərbayjon** Respublikasi Kodeksining 32.1.6-moddasida ham xuddi shunday norma nazarda tutilgan. Ixtiyoriy xabar berish va vakolatli organga ko‘maklashish institutlari latent ma‘muriy huquqbuzarliklarni aniqlashning ta‘sirchan huquqiy mexanizmi hisoblanadi. Ushbu normalarni milliy Kodeksga implementatsiya qilish qo‘shimcha moliyaviy sarf-xarajatlarni talab etmaydi hamda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati samaradorligini oshiradi [Qarang: 1-ilova].

Ma‘muriy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarni tartibga solishda xorijiy davlatlar tajribasida jiddiy tafovutlar ko‘zga tashlanadi. O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 32-moddasida oltita asos belgilangan bo‘lib, mazkur ro‘yxat qat‘iy cheklangan (yopiq) xususiyatga ega. Faqatgina mastlik holatida sodir etilgan huquqbuzarlik bo‘yicha vakolatli organga qilmishni og‘irlashtiruvchi deb baholamaslik vakolati berilgan. **Belarus** va **Qozog‘iston** qonunchiligidagi ro‘yxat esa hajm jihatidan keng va qilmishning ijtimoiy xavfliligini aniqroq ifodalaydi. Mazkur davlatlar kodekslarida irqiy, milliy, diniy yoki ijtimoiy adovat motivi asosida huquqbuzarlik sodir etish og‘irlashtiruvchi holat sifatida mustahkamlangan. Shuningdek, homiladorligi ayon bo‘lgan ayolga nisbatan tajovuz qilish yoki ruhiy holati buzilgan shaxslardan foydalanish kabi asoslar ham kiritilgan. Bundan tashqari, mansabdor shaxs tomonidan xizmat vakolatlarini suiiste‘mol qilishi, boshqa huquqbuzarlikni yashirishga urinishi yoxud jabrlanuvchining qonuniy harakatlariga nisbatan noqonuniy ta‘sir ko‘rsatishi (qasd olish motivi) og‘irlashtiruvchi holat deb topiladi.

Qirg‘iziston Respublikasi Kodeksining 46-moddasi ikkinchi qismida esa, ushbu masalaga farqli yondashuv qo‘llanilgan. Sud yoki ma‘muriy organ huquqbuzarning shaxsi va ishning obyektiv holatlaridan kelib chiqib, ro‘yxatdagi har qanday holatni og‘irlashtiruvchi emas, deb topish vakolatiga ega. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy qonunchiligimizdagi mazkur cheklangan ro‘yxat huquqbuzarliklarning zamonaviy tendensiyalarini to‘liq qamrab olmaydi. Xususan, adovat motivi asosida sodir etiladigan deliktlarga nisbatan javobgarlikni og‘irlashtiruvchi normaning mavjud emasligi huquqiy bo‘shliq sifatida baholanadi. Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish uchun MJtKning 32-moddasini quyidagi mazmundagi band bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“huquqbuzarlikning irqiy, milliy, etnik, diniy yoxud ijtimoiy adovat yoki nizo motivi asosida sodir etilishi”.

Ozərbayjon Kodeksida milliy qonunchiligimizda mavjud bo‘lmagan o‘ziga xos norma mustahkamlangan. Uning 32.3 va 33.3-moddalariga ko‘ra, huquqbuzarlik tarkibining

belgisi sifatida Maxsus qismda nazarda tutilgan holat jazo tayinlashda yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holat sifatida takroran baholanishi qat’iyan taqiqlanadi. Bu qoida bir qilmish uchun ikki marta jazolashga yo‘l qo‘ymaslik (*non bis in idem*) prinsipining sanksiya doirasidagi huquqiy ifodasidir. **O‘zbekiston** qonunchiligida mazkur cheklovning mavjud emasligi huquqni qo‘llash amaliyotida muayyan muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, takroriylik holati Maxsus qism moddasida kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lishiga qaramay, MJtKning 32-moddasi birinchi qismi 2-bandiga asosan yana og‘irlashtiruvchi holat sifatida qo‘shimcha ravishda inobatga olinishi mumkin. Natijada huquqbuzarga nisbatan bitta holat uchun qo‘shaloq huquqiy ta’sir chorasi qo‘llaniladi. **Ozarbayjon**ning mazkur aniq normasini milliy qonunchiligimizga tizimli o‘zgartirishlarsiz implementatsiya qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz [Qarang: 1-ilova].

Bir necha huquqbuzarlik majmui bo‘yicha ma’muriy jazo tayinlash instituti qiyosiy tahlil qilinayotgan kodekslar orasida eng ko‘p huquqiy tafovutga ega bo‘lgan yo‘nalishdir. Xususan, **O‘zbekiston** (34-modda), **Gruziya** (36-modda) va **Ozarbayjon** (34.3-modda) qonunchiligi yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qamrab olish (yutilish) prinsipiga asoslangan. Bunda ishlar bitta vakolatli organ tomonidan ko‘rib chiqilsa, yakuniy jazo eng og‘ir sanksiya doirasida tayinlanadi. **Latviya** qonunchiligining 22-moddasida buning aksi bo‘lgan huquqiy yechim mustahkamlangan. Qonunda qamrab olish prinsipi umuman nazarda tutilmagan. Har bir huquqbuzarlik uchun alohida jazo chorasi qo‘llaniladi. Bitta xatti-harakat natijasida bir nechta huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda ham, har bir qilmish uchun mustaqil jazo belgilanadi. **Germaniyaning** OWiG qonuni bu masalada differensiallashgan yondashuvni namoyon etadi. Hujjatning 19-paragrafida ideal majmui (bitta qilmish bilan bir nechta normani buzish) tartibga solingan. Unga ko‘ra, faqat bitta — eng yuqori jarimani nazarda tutuvchi norma bo‘yicha jazo tayinlanadi. 20-paragrafda esa, real majmui holati aks ettirilgan va har bir huquqbuzarlik uchun alohida jarima belgilanishi qayd etilgan. O‘zbekiston Kodeksida ma’muriy huquqbuzarliklarning ideal va real majmui o‘zaro farqlanmaydi. Mazkur bo‘shliq amaliyotda huquq normalarini turlicha talqin qilishga olib keladi.

Belarus qonunchiligidagi tajriba yuridik texnika nuqtai nazaridan eng tizimli yechim sifatida baholanadi. Kodeksning 7.4-moddasiga muvofiq, majmuni tashkil etuvchi ikki va undan ortiq huquqbuzarlikning har biri uchun alohida jazo tayinlanishi talab etiladi. So‘ngra ularni to‘liq yoki qisman qo‘shish orqali yakuniy jazo o‘lchovi belgilanadi. Shu bilan birga, sanksiyalarni qo‘shishning maksimal chegaralari qat’iy mustahkamlangan. Jismoniy shaxslarga nisbatan jarima BHMning 100 baravaridan oshmasligi kerak. Transport harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklar uchun bu ko‘rsatkich BHMning 200 baravarigacha yetadi. Inson huquq va erkinliklariga, aloqa, moliya, tadbirkorlik, soliq va boshqaruv tartibiga qarshi huquqbuzarliklarda esa, maksimal chegara BHMning 400 baravari etib belgilangan. Yuridik shaxslar uchun limit BHMning 2.000 baravarini, jamoat ishlari 120 soatni, ma’muriy qamoq esa, 30 sutkani tashkil etadi. Ushbu mexanizm javobgarlikning muqarrarligini ta’minlaydi. Shuningdek, sanksiyaning nomutanosib darajada og‘irlashib ketishining oldini oladi. Milliy qonunchiligimizdagi qamrab olish prinsipi esa, bir nechta turli huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan o‘ziga xos asossiz “**imtiyoz**” yaratadi.

Masalan, mayda bezorilik va yo‘l harakati qoidalarini buzish holatlari birgalikda ko‘rib chiqilganda, ijtimoiy xavfliligi pastroq bo‘lgan qilmish amalda huquqiy ta’sir chorasiz qoladi. Shu bois, ma’muriy huquqbuzarliklar majmuida jazolarni qo‘shish modeliga o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 7-maydagi F-30-son farmoyishida belgilangan javobgarlikning mutanosibli talabini ta’minlashning eng samarali huquqiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Sanksiyaning quyi chegarasidan kam miqdorda jazo tayinlash institutini qo‘llash amaliyoti xorijiy davlatlar qonunchiligida turlicha tartibga solingan. Xususan, **Belarus** Respublikasining Kodeksi 7.8-moddasiga ko‘ra, huquqbuzarlikning xususiyati, oqibatlari va aybdorning mulkiy holati bilan bog‘liq istisnoli vaziyatlarda jarima sanksiyaning quyi chegarasidan kam miqdorda belgilanishi mumkin. Bunda faqat qonunda ko‘rsatilgan mutlaq minimumga (Kodeksning 6.4-moddasi) rioya qilinadi. Mazkur vakolat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishni ko‘rib chiqayotgan organning o‘ziga berilgan.

Rossiya Kodeksida (4.1-modda) esa, o‘zgacha huquqiy mexanizm mustahkamlangan. Unga ko‘ra, sanksiyaning quyi chegarasidan kam miqdorda jarima tayinlash uchun belgilangan jarima miqdori qonundagi muayyan ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga, tayinlanayotgan jarima sanksiya minimumining yarmidan kam bo‘lmasligi shart. **Moldova** Respublikasi kodeksining 44-1-moddasi ham yengilroq jazo tayinlash tartibini nazarda tutadi. **O‘zbekiston** Respublikasining MJtK 33-moddasi bu vakolatni faqat sudga taqdim etgan. Boshqa vakolatli organlar yengilroq jazo qo‘llash masalasini hal etish uchun ishni MJtKning 308¹-moddasida belgilangan tartibda sudga yuborishi lozim.

Ilmiy tahlillar milliy qonunchiligimizdagi o‘ziga xos tizimli xususiyatni ko‘rsatmoqda. Uni yuridik fanda “**jazoni yengillashtirishda sudning mutlaq vakolati**” (**sud monopoliyasi**) sifatida baholash mumkin. Kodeksning 21-moddasi qilmishning kam ahamiyatliligi, 21²-moddasi yarashuv munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutadi. 33-modda esa, yengilroq jazo qo‘llash tartibini belgilaydi. Ushbu uchala holatda ham yakuniy qarorni faqat sud qabul qiladi. Vakolatli (ma’muriy) organlar esa, faqat materiallarni sudga yo‘naltirish bilan cheklanadi.

Qozog‘iston Respublikasi tajribasida bu masala boshqacha hal etilgan. Kodeksning 62–64-1-moddalariga muvofiq, *javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi, amnistiya, yarashuv yoki qilmishning kamahamiatliligi asosida* javobgarlikdan ozod qilish vakolati sud bilan bir qatorda ma’muriy organlarga (mansabdor shaxslarga) ham berilgan. Huquqiy jihatdan bu ikki modelning o‘z asoslari mavjud. Sud vakolatining mutlaqligi ma’muriy organlar tomonidan suiiste’molliklarning oldini oladi va yagona sud amaliyotini shakllantiradi. Biroq, ushbu tartib har bir yengillashtiruvchi holat uchun sud instansiyasiga murojaat qilishni talab etib, fuqarolarning ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflashiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, bu holat sudlarning ish yuklamasini sun’iy ravishda oshiradi. Bu o‘rinda fikrimizcha, **maqsadga muvofiq yechim** — huquqbuzarlikning kamahamiatliligi masalasida ma’muriy organning o‘ziga qaror qabul qilish vakolatini berish hamda ushbu qaror ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlashdir.

Ma’muriy huquqda “**ogohlantirish**” institutining ikki xil huquqiy konstruksiyasi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. **Rossiya** qonunchiligi (4.1.1-modda) ogohlantirishni mustaqil jazo

5-Avgust, 2026-yil

turi sifatida emas, balki jarimani almashtirish mexanizmi sifatida baholaydi. Agar davlat nazorati jarayonida aniqlangan huquqbuzarlik *birinchi marta sodir etilgan bo‘lsa* va qonunda ko‘rsatilgan *jiddiy zararlar (hayotga, atrof-muhitga, xavfsizlikka)* mavjud bo‘lmasa, jarima majburiy tarzda ogohlantirish bilan almashtiriladi.

O‘zbekiston MJtKga 2026-yil fevral oyida kiritilgan 24¹-modda esa, ogohlantirishni mustaqil jazo turi sifatida mustahkamladi. Biroq uning qo‘llanilishi doirasi tortib, faqat muayyan moddalarda nazarda tutilgan qilmishlarga, shaxs o‘z aybiga iqror bo‘lgan taqdirda hamda bir yil davomida bir martadan ortiq bo‘lmagan holda qo‘llashga ruxsat berildi. Buni milliy qonunchilikdagi ehtiyotkorona, ammo qamrovi cheklangan yechim sifatida baholash mumkin. **Qirg‘iziston** Kodeksining 48-moddasi esa, ogohlantirishni huquqbuzarlik sodir etilgan joyda va darhol qo‘llashni talab etib, uni tezkor huquqiy ta’sir chorasiga aylantirgan.

Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi jarima ballari tizimi milliy qonunchiligimizga MJtKning 34¹-moddasi orqali joriy etildi. Mazkur normaga ko‘ra, muayyan huquqbuzarliklar uchun asosiy jazo bilan birga jarima ballari hisoblab boriladi (bir qilmish uchun ikki ballgacha). Ballar bir yil davomida yuritiladi va 12 balldan oshgan taqdirda, oxirgi huquqbuzarlik uchun haydovchi kamida olti oy muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilinadi. Ushbu jazo chorasi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari tomonidan qo‘llaniladi.

Huquqshunos olim V.N. Sindrya o‘n beshta davlat tajribasini umumlashtirib, ball tizimidagi ko‘rsatkichlarning sezilarli farqini tahlil qilgan. Xususan, **Chexiya, Germaniya, Fransiya** va **Buyuk Britaniya**da o‘n ikki, **Ozarbayjon** va **Italiya**da yigirma, **BA**da yigirma to‘rt, **Gruziya**da yuz, **Ukraina**da yuz ellik ball etib belgilangan. **AQSH** amaliyotida o‘n bir balldan oshgan haydovchining yillik sug‘urta to‘lovi keskin oshadi¹⁶. **O‘zbekiston** qonunchiligida Yevropa tajribasiga asoslangan holda o‘n ikki ballik tizim tanlangan bo‘lib, buni asoslantirilgan yondashuv deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, V.N. Sindryaning ball tizimini ma’muriy jazoning mustaqil turi sifatida talqin qilishini ilmiy nuqtai nazardan qo‘llab-quvvatlab bo‘lmaydi. Jarima ballari mustaqil huquqiy cheklov xususiyatiga ega emas. U moliyaviy undiruv yoki biror huquqdan mahrum qilishni nazarda tutmaydi. Mazkur tizim huquqbuzarliklar takroriyligini rasmiy qayd etish va muayyan chegarada boshqa jazo turini tayinlash mexanizmi hisoblanadi. MJtKning 34¹-moddasi dispozitsiyasi ham buni tasdiqlaydi: ball asosiy jazoga qo‘shimcha ravishda hisoblanadi, huquqiy oqibat esa, boshqa jazo ko‘rinishida yuzaga chiqadi. Demak, jarima bali ma’muriy jazo emas, balki javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatning raqamlashtirilgan va formallashtirilgan shaklidir. Mazkur nazariy tafovut jiddiy amaliy ahamiyat kasb etadi. Agar ball jazo sifatida e’tirof etilsa, unga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlari, yengillashtiruvchi holatlar va jazolarni qo‘shish qoidolari tatbiq etilishi talab qilinadi. Bu esa, o‘z navbatida, huquqni qo‘llash amaliyotida tizimning ishlamasligiga va turli ziddiyatlarga olib keladi.

¹⁶ Цындрыя В.Н. Бальная система административных наказаний (взысканий): анализ зарубежного опыта // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Юридические науки. – 2019. – Т. 5 (71). – № 3. – С. 320–328.

5-Avgust, 2026-yil

Milliy qonunchiligimizdagi muayyan texnik yechimlarni qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Xususan, MJtKda (34¹-модда) har bir huquqbuzarlik uchun ikki balldan ortiq bo‘lmagan jarima bali belgilangan. V.N. Sindryaning e‘tirof etishicha, xorijiy davlatlar amaliyotida ball miqdori huquqbuzarlikning og‘irlik darajasiga mutanosib ravishda tabaqalashtirilgan. Unda ijtimoiy xavfliligi past bo‘lgan qoidabuzarliklar uchun bir ball, og‘ir huquqbuzarliklar uchun esa, yuqoriroq ball ko‘zda tutiladi¹⁷. Ikki ballik qat’iy chegara mazkur tabaqalashtirish prinsipini amalda cheklaydi. Oqibatda mast holatda transport vositasini boshqarish va to‘xtash qoidasini buzish kabi turli darajadagi qilmishlar ball tizimida deyarli tenglashib qoladi. Bu esa, tizimning *asosiy maqsadi* – muntazam va xavfli qoidabuzarlarni aniqlash vazifasini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiladi. Bu o‘rinda qat’iy chegarani bekor qilish va ball miqdorini Kodeksning Maxsus qismi sanksiyalari doirasida tabaqalashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

¹⁷ O‘sha manba.